

**Lecture 6. Regulation of innovation activity by government.**  
**Ma'ruza 6. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi va boshqarilishi.**

**1. Davlat innovatsion siyosatining maqsadi va vazifalari.**

**2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion jarayonni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari**

Davlat innovatsion siyosati – bu davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismi hisoblanib, davlatning innovatsion siyosatiga munosabati maqsadi, yo'nalishi hokimiyat organlari faoliyat shakllarini aniqlaydi va ularning ilmiy-texnik yutuqlari natijasini tatbiq etilishini ifodalaydi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda ilmiy-texnika taraqqiyoti kompleks konsepsiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan.

Uning mazmuni:

- Ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilishi;
- ilmiy-texnik taraqqiyot yo'nalishlarini tartibga solinishi;
- mahalliy ishlab chiqarishni himoyalash va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilganligi;
- ilmiy-texnik taraqqiyotni rag'batlantirish tizimini takomillashtirishga e'tibor berilishi;
- litsenziya va patent huquqi;
- tartibga solishni qo'llab-quvvatlash (huquqiy, moliyaviy, texnik va hokazo);
- innovatsion faoliyat natijalarini baholashning mezonlarini ishlab chiqarish va uni baholashning mavjudligi;
- ilmiy-texnik taraqqiyotni boshqarish metodlarini doimiy takomillashtirilib borilishi;
- O'zbekiston ilmiy-texnik taraqqiyotini ta'minlash va mustahkamlash kabi vazifalarni hal etish bilan belgilanadi.

“2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda, iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarini mamlakatimizning jahin sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish

yo'lida tez va sifatli ilgariylashini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda malga oshirishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya, diverfikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini ko'rsatdi.

Jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida mamlakatni jadal rivojlantirish, shuningdek, 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan:

- a) mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshlik darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish – Strategiyaning bosh maqsadidir;
- b) bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

Barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojariga moslashuvchanligini ta'minlash;

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarning ilmiy salohiyatni mustahkamlash va samardorligini oshirish, ilmiy tadqiqot, tajriba- konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm –fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

Innovatsiyalar, ilmiy tadqiqot, tajriba – konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag'lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

Boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat xokimiyati rganlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

Mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart- sharoitlar yaratish, davlat – xususiy sherikligini rivojlantirish;

Barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

Yuqoridagi vazifalarni hal etishda innovatsion siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

-mamlakat iqtisodiyotida keskin burilishini ta'minlaydigan yangi texnika va texnologiyalarni yaratish va uni amaliyotga joriy qilish;

-yirik tarmoq ilmiy-texnik loyihalari ustida ish olib borish (korxonalar imkoniyatlari doirasida bajarib bo'lmaydigan manbaalarni jamlashuvini ta'minlash);

-ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirishda, ilmiy-texnik tadbirlardan keng foydalanishga erishish;

-ilmiy-texnik ishlarni davlat tashqi iqtisodiy siyosati, halqaro mehnat taqsimoti maqsadlariga qaratish zarur.

Bunday yangi investitsion siyosatning amalga oshirilishi materiallarni tejash borasida yangi sifat darajasiga, mehnat unumdorligini o'sishiga, fond qaytimining ortishiga, material sig'imi, energiya sig'imi, mahsulot kapital sig'imining kamayishiga, aholini yangi turmush madaniyatini shakllantirishiga, davlatni texnik va texnologik qoloqligidan chiqarishga, ilmiy-texnik taraqqiyotda yuksak natijalarga erishishga olib keladi.

Innovatsion faoliyat sohasidagi siyosatning asosiy mohiyati:

-maqsadni aniq belgilanishi;

-boshqaruv organlari, amalga oshirish funksiyasi;

-axborot tizimi;

-tartibga solish mexanizmi va qo'llab-quvvatlash.

Innovatsion siyosatning tartibga solish elementlari:

-ilmiy-texnika taraqqiyoti va tajriba konstruktorlik ishlari (ITTTKI)ni to'g'ridan-to'g'ri rag'batlantirish;

-ITTTKIning iqtisodiyot tarmoq (soha)larida yondashma rag'batlantirish;

-innovatsion faoliyatga har xil turdagi imtiyozlarni berish;

-innovatsion muhit va infratuzilmani shakllantirish kabilardan iboratdir.

Respublikamizda innovatsion faoliyatni amalga oshirishda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Uning yaqqol ko'rinishi sifatida Davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotganligini keltirish mumkin.

Bu quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

-investitsiya dasturi va loyihalarni moliyalashtirish;

-Ilmiy Texnika Taraqqiyoti va Tajriba konstruktorlik ishlari (ITTTKI)ni moliyalashtirish;

-chet el patent va ta'minotlari asosida ishlab chiqarishni moliyalashtirish;

-innovatsion faoliyatni informatsion bazasini shakllantirishni moliyalashtirish;

-innovatsion faoliyatni davlat budjeti hisobidan qo'llab-quvvatlash;

-taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

-hududlar ilmiy va texnik dasturlarini shakllantirish va amaliyotga tadbqiq etish;

-mahalliy budget hisobidan ilmiy va ilmiy –texnik faoliyatni moliyalashtirishga keng imkoniyatlar yaratib berish;

-O'zbekiston Respublikasi subyektlari orasidagi innovatsion faoliyat, ilmiy va ilmiy – texnik taraqqiyotiga hayrixohlik qilish;

-Davlat ilmiy-texnik muassasalari boshqaruvini takomillashtirish;

-intelektual mulk huquqlarini muhofaza qilish;

-standartlash va sertifikatlashning yagona tizimini shakllantirish;

-ilmiy-texnik xodimlarni Davlat tomonidan attestatsiya qilish tartibini o'rnatish.

Davlat innovatsion siyosatining asosiy maqsadi:

-innovatsion faoliyat yuzasidan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sharoit yaratish;

-ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;

-innovatsion faoliyatni jadallashuviga hayrixohlik qilish. Shu jumladan, innovatsion sohada tadbirkorlikni rivojlantirish;

-innovatsion faoliyatni Davlat tomonidan qo'llab- quvvatlash, innovatsion faoliyatiga yo'naltirilgan davlat resurslari samaradorligini oshirish;

-mahalliy mahsulotlarni chetga chiqarilishi zaruriy tadbirlarini ishlab chiqish va ularga ko'maklashish kabilardan iborat bo'lib, quyidagi tamoyillar asosida shakllanadi;

-ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi, mahsulot raqobatbardoshligini ortishida, aholi turmush madaniyati va ekologik xavfsizlikni yaxshilanishida innovatsion faoliyatga ustuvor vazifa sifatida qarash;

-innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishini ta'minlash;

-iqtisodiyotda keskin tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadida, innovatsiyani keng hajmda bir joyga jamlash;

-innovatsion sohada bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlanishiga sharoitlar yaratish;

-innovatsion faoliyatni amalga oshirishda qulay investitsiya muhitini yaratish;

-innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'yektlar, intellektual mulk manfaatlari va huquqlarini Davlat tomonidan himoyalash;

-innovatsion faoliyat orqali davlat mudofaa va maxsus ehtiyojlari xavfsizligini ta'minlash.

Innovatsiyani o'zlashtirilishi bozorga, avvalo, bu bir tadbir ko'rinishida kirib keladi. Marketing siyosati bilan bog'liq har qanday yangi mahsulot ikki nuqtayi nazardan qaraladi.

1. Ahamiyati va unda texnik yangiliklarning mavjudligi;

## 2. Yangi mahsulotning bozorga ta'siri.

Avvalo, mahsulot o'zida ko'plab texnik yangiliklarni ifoda etib, an'anaviy ehtiyojlarni ta'minlaydigan bozorda yangilik bo'lishi mumkin. Bu yerda baho sezilarli darajada o'zgarmaydi. Mahsulotning bozorga yangiligi qo'shimcha ilmiy-texnik qarorlarsiz (tashqi ko'rinishi, o'lchamlari, shakli va rangi o'zgarishi hisobiga) ham bo'lishi mumkin.

Har qanday yangidan yuzaga kelayotgan g'oya ma'lum bir tajribaning natijasi hisoblanadi. Birinchidan, yangi ehtiyojni paydo bo'lishi yangi mahsulot ishlab chiqarish g'oyasi yoki yangi texnologik jarayonni qo'llanishi bilan bog'liq bo'ladi.

Ikkinchidan, usulni paydo bo'lishi uning ta'sirida ma'lum bir zaruriy ehtiyojni ta'minlanishiga olib keladi.

Innovatsion imkoniyatli foydalanuvchiga ta'sir etuvchi asosiy omil bu yangilikni ochilishigacha bo'lgan davrning iloji boricha qisqa bo'lishidir.

Yangilikni yashirin ehtiyojini to'rt darajasi mavjud. Qaysiki bu darajalar ilmiy-texnik siyosatni shakllantirishda kerak bo'ladi:

1. Innovatsiya paydo bo'lgunga qadar yuzaga kelgan ehtiyoj.
2. Yangilikni kashf etilgandan so'ng paydo bo'lgan ehtiyoj;
3. Kashfiyot ochilgandan so'ng uzoq vaqt paydo bo'lmagan ehtiyoj.
4. Negativ ehtiyoj yoki voz kechilgan ehtiyoj.

Demak, barcha innovatsion korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan tadbirlar mijoz(iste'molchi) korxonalarining tadbirlari bilan muvofiqlashtirib borilishi lozim.

## **3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion jarayonni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari**

Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion menejmentni o'rganish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Xo'jalik yuritishning bozor mexanizmlari konsepsiyasi ko'plab innovatsion qiyinchiliklar asosida shakllanadi.

Bozor sharoitida innovatsion firmani shakllantirish o'ta murakkab vaziyatlarda amalga oshiriladi.

Innovatsion menejmentning imkoniyat (salohiyat)laridan samarali foydalanish, bu korxonalar ilmiy – texnik jamoasining ishlab chiqarishda faol qatnashishga bevosita bog'liqdir. Xodimlar faoliyatini boshqarish menejerdan yuqori malakani, boshqaruvning ko'plab usullardan keng foydalanishni talab etadi.

Innovatsion menejmentni fan sifatida shakllanishi ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotda ijobiy siljishlarga olib keladi. Ilmiy – texnik taraqqiyotga yondashish tubdan o'zgaradi va insonlarning ilmiy faolligi ortadi.

So'nggi paytlarda innovatsion menejment ijtimoiy muammolarni hal etishning bosh omillaridan biriga aylandi. Shu boisdan respublikamizda innovatsion menejmentga qiziqish yanada kuchayib bormoqda.

Innovatsion jarayonni rivojlanish shartlari ikkita asosiy omil va ta'sirida shakllanadi:

- Yangilikni yaratuvchilar faoliyatiga bozorning ta'siri;
- Yuqori texnologiya bilan bog'liq bo'lgan innovatsion jarayonlarni

Davlat tomonidan tartibga solib turilishi.

Hozirga kunda innovatsion faoliyat maqsad va vazifalarni belgilovchi ko'plab Davlat dasturlari ishlab chiqilgan;

Innovatsion faoliyatni rivojlanishi uchun normativ shartlarni belgilovchi 3 ta bosqich mavjud bo'lib:

Birinchi bosqich: strukturaviy o'zgarish (siljish)lar bilan bog'liq.

Bu yerda Davlatning asosiy vazifasi yangi samarali ishlab chiqarishni qo'llab quvvatlash, aholining ijtimoiy ahvolini turg'unlashtirish, asosiy tizimni hayotiyligini saqlash, yangi samarali ishlab chiqarishni tashkil etishdan;

Ikkinchi bosqich: iqtisodiy yuksalish – mamlakatda ishlab chiqarishni o'sish sur'atlarini oshiish bosqichi. Bu yerda iqtisodiy samara beruvchi innovatsion loyihalarni amalga oshirish.

Uchinchi bosqich: takomillashgan yangi ishlanmalar, ularni amalga oshirishdagi manfaat dastaklari ekspertiza natijalari asosida ko'rsatilganligi bilan ajralib turadi.'

Hozirda innovatsion faoliyatni rivojlanishining quyidagi uchta asosiy tendentsiyasi hukmronlik qilib, ular innovatsion jarayonni rivojlanishiga kuchli ta'sir etadi va bir – biri bilan doimo uzviy aloqada bo'ladi:

- yangi texnologiyani rivojlantirish;
- talab va taklifni globallasuvi;
- xaridorlar xatti – harakatlarining o'zgarishi.

O'zbekistonda ilmiy-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari sifatida avvalo informatsion texnologiya va elektronika, ishlab chiqarish texnologiyasini modernizatsiya qilish, kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish, yoqilg'i- energetika kompleksini rivojlantirish, ekologiya va tabiatdan foydalanishni tartibga solishni o'z ichiga oladi.

Innovatsion jarayonning bosh qoidasi "texnologiyani rivojlantirish – iqtisodiy o'sishni harakatlantiruvchi kuchi". Shu boisdan bugungi kunda innovatsion faoliyat quyidagilarni hisobga olmog'i lozim:

-yangi texnologiya yakka holda kelmaydi u boshqalar bilan bevosita bog'liqdir;

-har bir butun bir qator bir – birini to'ldiruvchi bazis texnologiya bilan bog'liq;

-har bir bazis texnologiya bir qator tayanch texnologiyalarni negizi hisoblanadi;

-bazis texnologiya – yangi sanoat tarmoqlari asosi;

-tayanch texnologiyalardan tarmoqni modernizatsiya qilishda foydalaniladi.

O'z ish faoliyatida yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanishni maqsad qilgan tadbirkor bu <oltin> qoidaga so'zsiz amal qilishi lozim, aks holda, salbiy holat yuzaga kelishi muqarrar.

Innovatsion korxonalar tarkibiy tuzilishini takomillashtirish tajribasi innovatsion jarayonlarni quyidagi bosqichlarga bo'linishini isbotladi;

-har bir tatbiq etilgan innovatsiya o'zining afzalliklari bilan ajralib turishi;

-atrof-muhitdan muhofazalangan innovatsiya mavjud emas;

-bitta innovatsiya kelgusida ko'plab innovatsiyalarni yuzaga keltiradi;

-innovatsiya korxonalarining o'z-o'zini tashkil etish va aktiv ivojlantirishining zaruriy elementi hisoblanadi;

-har qanday innovatsiya katta intellaktual salohiyat va kuchni talab etadi;

-talabga ega innovatsiya, ma'muriy joriy etishga nisbatan tez amaliyotga tatbiq etiladi;

-innovatsiyaning muvaffaqiyatli xarajati uchun yangi g'oya zarur;

-innovatsiyani tatbiq etishni iqtisodiy samara darajasi bilan bog'liq;

-innovatsiyada tartib qanchalik yuqori bo'lsa, innovatsion jarayonni boshqarishga ham talab shunchalik yuqoridir;

-innovatsiyani muvaffaqiyatli tatbiq etishga bir qator omillar (yangilikka intiluvchi inson, taklif, g'oya kashfiyot va hokazolar) zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.A.Abdullayev, A.E.Teshabaev va b. "Innovatsion menejment" o'quv qo'llanma. "Iqtisod-moliya" nashriyoti . 2015
2. и.ф.д., проф. Р.Р.Хасанов. Инновацион таракқиётнинг мазмуни, инновация турлари ва инновацион жараёнлар қонуниятлари. Презентации.
3. S.G'ulomov, G'.Qosimov va b. "Strategik va innovatsion menejment" darslik. Toshkent – 2013.
4. Nazarova F.X. , Ziyayeva Sh.Sh. "Innovatsion menejment". O'quv-uslubiy majmua. Toshkent - 2018